


2020-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-may holatiga ko'ra 26367 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 16143 ta korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

2020-yil 1-may holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 11381 ta korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, ularning ulushi 70,5 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik tadbirkorlik sub'ektlarning ulushi, % da**
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)




2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 40,4 % ga yaqin.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 623,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,4 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga 32,0 %, transport xizmatlariga 19,2 %, moliyaviy xizmatlarga 17,8 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,8 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 156,9 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-mart oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 355,7 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi (yanvar-mart oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 121,7 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 23,9 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 119,3 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 21,6 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 50,9 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 121,5 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 29,8 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2 623,7	96,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	153,4	113,2
moliyaviy xizmatlar	467,9	129,6
transport xizmatlari	504,1	84,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	479,7	84,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	55,6	76,6
savdo xizmatlari	838,3	93,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	71,9	77,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	113,9	114,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,8	99,1
ijara xizmatlari	71,2	92,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	81,8	80,6
shaxsiy xizmatlar	82,5	80,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,4	85,5
boshqa xizmatlar	110,9	94,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 129,6 %da, ta'lim sohasidagi xizmatlari 114,4 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 113,2 % da xizmat turlarida qayd etildi


2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari 76,6 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 77,2 % va shaxsiy xizmatlar 80,4 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,2 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %) egallaydi.


**2020-yil yanvar-aprel oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**



2020-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 838,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 50,9 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllarni savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 84,1 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,3 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari

2020-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 153,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-mart oylari) davrga nisbatan o'sishi 35,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,6 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 55,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,1 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,6 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 467,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,6 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (93,6%) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da




**2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	2 623,7	96,4
Qarshi sh.	1 356,1	96,8
Shahrisabz sh.	77,0	96,9
tumanlar:		
G'uzor	91,0	93,9
Dehqonobod	57,2	95,5
Qamashi	84,9	93,6
Qarshi	106,0	91,8
Koson	147,8	96,6
Kitob	119,7	94,4
Mirishkor	58,9	92,1
Muborak	74,2	95,0
Nishon	84,5	92,2
Kasbi	58,2	95,7
Chiroqchi	99,2	91,8
Shahrisabz	99,0	91,6
Yakkabog'	110,0	93,2

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1 356,1 mlrd. so'm), Koson (147,8 mlrd. so'm), Kitob (119,7 mlrd. so'm) va Yakkabog' (110,0 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Dehqonobod (57,2 mlrd. so'm), Kasbi (58,2 mlrd. so'm) va Mirishkor (58,9 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2020-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Shahrisabz (91,6%), Chiroqchi (91,8 %) va Qarshi (91,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (51,7 %), Koson (5,6 %), Kitob (4,6 %) va Yakkabog' (4,2 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,2 %), Muborak (2,9 %) va Nishon (3,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.